

**Ikromova Yulduzoy Erkin qizi**

*JDPU, Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasи o`qituvchisi.*

**Qudratova Dilxumor Xurshid qizi**

*2 – bosqich talabasi*

Hayvonot dunyosi juda ham rang barang bo`lib, uning har bir tarkibiy qismi, tuzilmasi, undagi har bir tur, zot o`ziga xos o`rin va ahamiyatga molik sanaladi. Chunki so`nggi yillarda fan – texnikaning jadallik bilan o`sishi, juda ko`plab hayvon va o`simlik turlarining yo`qolib, yoki qirilib ketishiga sabab bo`lmoqda. Shu sababdan ba`zi bir hayvon turlarini faqat ayrim mintaqa yoki hududlardagina ko`rishimiz mumkin. Jirafalar ham xuddi shunday hayvonlar toifasiga mansub hayvon sanaladi.

Jirafalar sut emizuvchilar sinfi juft tuyoqlilar turkumiga mansub, lekin, 2016 – yilgi ilmiy tadqiqotlarga ko`ra, jirafalar tur hisoblanmaydi, balki, 4ta turni o`z ichiga oluvchi kenja oila hisoblanadi. Demak shu o`rinda jirafaning sistematik o`rniga to`xtalib o`tish maqsadga muvofiq. Jirafa quyidagi sistematik o`ringa ega.

**Dunyo – hayvon – Zoa**

**Kenja dunyo – ko`p hujayralilar – Metazoa**

**Bo`lim – haqiqiy ko`p hujayralilar – Eumetazoa**

**Tip – Xordalilar – Chordata**

**Kenja tip – Boshskeletlilar(Umurtqalilar) – Craniata (Vertebrata)**

**Katta sind – To`rt oyoqlilar – Tetrapoda**

**Sinf – Sutemizuvchilar – Mammalia**

**Turkum – Juft tuyoqlilar – Artiodactyla**

**Oila – Jirafalar – Giraffidae**

**Turlar – 1. Jirafa – Giraffa cameleo Pardalis**

**2. Okapi – Okapia johnsoni**

Avvallari jirafalarni Afrikaning shimoliy va g`arbiy qismida, Nil daryosi bo`ylari va Sahroi Kabirda uchratish mumkin edi. Hozirgi kunda esa faqatgina Janubiy Afrikada uchraydi xolos. So`nggi ma`lumotlarga ko`ra yovvoyi tabiatda 97500 dona, tutqinlikda esa 1144 dona jirafa borligi aniqlangan. Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi ma`lumotiga ko`ra, jirafalar yo`qolib ketish xafi ostidagi tur sifatida ro`yxatga kiritilgan. Eng oxirgi yangilangan ma`lumotga ko`ra butun yer yuzida 68000 dan ortiq bosh jirafalar qolgan.

Jirafalarning tashqi ko`rinishi boshqa hayvonlardan keskin farq qiladi, ya`ni juda uzun bo`y, ingichka oyoqlar, antennaga o`xshash shoxlar, to`q jigar rangdagi dog`larni boshqa hayvonda uchratmaysz. Ayni shu dog`lari xuddi odam barmoq izi kabi o`ziga xos va takrorlanmas hisoblanadi. Shoxlari esa endigina tug`ilganlarida bosh chanog`iga qo`shilmagan bo`ladi va hayoti davomida bosh suyagiga birikadi. Jirafa erkagini bo`yi

5,88 m, urg`ochisiniki esa 5,17 m gacha boradi. Og`irligi esa o`rtacha hisobda 828 – 1930 kg ni tashkil etadi.

Ko`pincha 10 – 12 ta hayvondan iborat poda bo`lib yashaydi. Jirafalar bo`ydon bo`lishlariga qaramay, bo`yin umurtqalari soni xuddi insonniki kabi 7 tadan iborat bo`ladi. Lekin ularning bo`yni yerga egilib, suv ichish va ozuqalanish uchun kaltalik qiladi, shuning uchun ular suv ichish uchun old oyoqlarini bukadi yoki yoyib oladi va shu tarzda suv ichadi.

Jirafalar kam naslli bo`lib, homiladorlik davri 457 kun, taxminan 15 oy davom etadi va faqat bitta bola tug`adi. Odatda 50% jirafalar 1 yoshga to`lmasdan nobud bo`lishadi. Bunga asosiy sabab sherlar hujumi va brakanerlik holatlari. Jirafalarning keskin kamayish sabablari, brakanerlik holatlari, doimiy qurg`oqchilik, ularning asosiy oziq manbai bo`lgan akatsiya daraxtlarning siyraklashuvi hisoblanadi. Hozirda ular yovvoyi tabiatda juda kam uchraydi va faqatgina milliy bog`larda saqlanib qolgan. Ayni shu brakanerlik tufayli noyob hisoblangan yer yuzida atiga 3 dona bo`lgan oq jirafalarning 2 tasi yo`q qilingan. Hozirda eng so`ngi jirafani brakonerlardan himoya qilish uchun *GPS-treker* biriktirilgan. Bu moslamadan keladigan tovushni sputnik orqali oladilar va shu tariqa uning joriy holati hamda harakatlari kuzatib boriladi.

Jirafalarning anatomik tuzilishiga keladigan bo`lsak, boshqa sut emizuvchi hayvonlarga nisbatan qon bosimi yuqori, miyasidagi harorat esa boshqa organlarga nisbatan 3 gradusga past bo`ladi. Bo`yin venasidagi klapanlar qon bosimini kesin ko`tarilib tushishiga yo`l qo`ymaydi, qon tomirlari esa elastik devordan iborat. Yuragi esa 11 kg keladi bu quruqlikdagi hayvonlar ichida eng yirik ko`rsatkich. U o`zidan bir daqiqa davomida 60 litr qonni haydaydi. Ko`pgina tadqiqot va izlanishlar natijasida jirafalarning oyoqlari qon tomir tizimiga qarab NASA tashkiloti astronavtlarining kiyimlari yaratilgan. Ba`zi tadqiqotlarga ko`ra, ularning terisida ko`plab bezlar mavjud va bu bezlarning ko`p qismi dog`larida joylashgan bo`ladi. Bu esa tananing ushbu dog`lar joylashgan sohalarida termal oyna sifatida ishlashiga oid nazariyani qo`llab quvvatlashi mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, tabiatga va uning resurslariga extiyotkorona muomala qilishimiz kerak. Agar insonlar o`simlik va hayvonlarga vaxshiyona muomalada bo`lar ekan, tabiat ham kun kelib bizdan o`ch olishni boshlaydi. Shuning uchun har bir insonda ekologik madaniyatni rivojlantirishimiz kerak. Eng avvalo har kim o`z yashab turgan joyidagi o`simlik va hayvonlarga e`tiborli bo`lishi, ularga zarar yetkazmasligi lozim. Yovvoyi tabiatdagi hayvonlarni esa o`z holiga qo`yishi ularni turli maqsadlarda ovlamasligi kerak. Yo`qolib borayotgan hayvonlarni himoya qilish va erkin ko`payishi uchun sharoit yaratishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent “O`zbekiston” 2016.
2. O.P. Bogdanov “O`zbekiston hayvonlari” O`qituvchi uchun qo`llanma. T.: “O`qituvchi” 1983.